

## **BIOLOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani 5- maktab**

**Biologiya fani o'qituvchisi**

**Mandanova Zaxida Kuchkarovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologik ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'limning demokratlashuvi, inson qobiliyatlari, yuksak ma'naviyatli, bilimli va salohiyatli barkamol shaxs

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, jahon hamja-miyatiga yuz tutishi, rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi barcha jabhalar kabi ta'lim tizimini isloh qilishni talab etdi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan.

Mazkur hujjatda mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari etib, jumladan, quyidagilar qayd etilgan: — ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

— ta'lim uzluksizligi va izchilligi;

— ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

— davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

— ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;

— bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;

— ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

Ma'lumki, mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy

prinsiplari uzviy ravishda uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamon talablari asosida qayta qurish, uzluksiz ta'lim tizimining turlari, ta'lim muassasalari oldidagi vazifalar, kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan bir qatorda uzluksiz ta'lim tizimining quyidagi faoliyat ko'rsatish prinsiplari qayd etilgan.

1. Ta'limning ustuvorligi — ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi va rivojlantirilishi jamiyatimizdagi ustuvor yo'nalish sanaladi. Ta'limning ustuvorligi yuksak ma'naviyatli, bilimli va salohiyatli barkamol shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi.

2. Ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda ustoz va tahsil oluvchining hamkorligiga asoslanadi.

3. Ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarini to'liq ochilishi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirishga asoslanadi.

4. Ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qiyamat tuyg'usi, yuksak ma'naviyat, ijtimoiy normalarga asoslangan xulq-atvor, estetik boy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarkib toptirish nazarda tutiladi.

5. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tariximiz, xalq an'analari va urf-odatlarini bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlashni ta'minlaydi.

6. Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishni nazarda tutadi.

7. Iqtidorli yoshlarni aniqlash — ta'lim jarayonini differensiallash-tirish va individuallashtirish, iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladigan o'qitish prinsiplari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga qanchalik mos kelishi va ularni amaliyotga joriy etishga safarbar etilganligiga bog'liq.

Ma'lumki, o'qitish prinsiplari — o'qitish tizimining tuzilishi, mohiyati, uning qonunlari va qonuniyatlari haqidagi, shuningdek, faoliyatni tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo'ladigan bilimlar majmuasi sanaladi.

Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar biologik ta'lim jarayonida ilmiylik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi sistemalilik, fundamentallik, izchillik, ko'rgazmalilik, onglilik, mustaqillik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning metodologik prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, samaradorlik, tushunarlik, individual va guruhli yondashishni uyg'unlashtirish, mantiqiy ketma-ketlik bilan bir qatorda, ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi prinsiplarga ham amal qilinishi zarurligini ko'rsatdi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan buyurtmalarni bajarish uchun avvalo ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratiza-tsiyalash, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuvni talab etadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratiza-tsiyalash prinsipi o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlik g'oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu prinsip diqqat markazida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotga qo'llay-digan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab, tahlil qiladigan, mo'ljalni ongli ravishda

mustaqil, to'g'ri ola oladigan shaxsni shakllantirish g'oyasi turadi. Mazkur prinsiplarning asosiy jihati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ijobiy fazilat va xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish sanaladi. Shu sababli ta'lim mazmuni insonparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokrati-zatsiyalash prinsipi orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'r-likning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilish va o'z-o'zini rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi. Pedagogning o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, o'quvchi-larni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash o'qituvchi o'quvchi-larning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri va nuqtayi nazarini erkin bayon etish, ular bu borada xatoga yo'l qo'yishi mumkinligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar huquqlari Konvensiyasiga amal qilinishini taqozo etadi. Respublikamizda rivojlangan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurish tamoyillari uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash va insonparvarlashtirishni talab etadi. Demokratizatsiyalash ta'lim tizimidagi formalizm, byurokratizmni yo'qotib pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Hamkorlik — tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, ularni ma’naviy, axloqiy, intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg‘unlashtirish, faoliyatning natijasi va borishini hamjihatlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Demokratlashtirilgan jarayonni insonparvarlashtirish o‘quv-tarbiyaviy jarayonining maqsadini amalga oshirish, tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, o‘quv mehnatining xarakteri va mazmunini o‘zgartiradi va shaxsning uyg‘unlikda rivojlanishiga qulay psixologik muhit yaratadi. O‘quvchilarning fan asoslarini egallashga bo‘lgan qiziqishini orttirish va bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash, inson, jamiyat va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirish, ta’lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qiyamat tuyg‘usi, yuksak ma’naviyat, ijtimoiy normalarga asoslangan xulq-atvor, estetik boy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarkib toptirish maqsadida biologiyani o‘qitishga yangicha yondoshildi. Yangi yondoshuvning asosiy mohiyati, an’anaviy ta’limda ko‘zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o‘qitishdan voz kechish va uning o‘rniga:

— zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini samarali tashkil etish;

— mustaqil ish va mustaqil faoliyatni amalga oshirish;

— tegishli talablarni jamoa orqali qo‘llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Yangi munosabatlarning vujudga kelishi shaxsga tafovutlab yondoshishni ya’ni ta’lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish prinsipini talab etadi. Mazkur prinsiplar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda:

— o‘rta saviyali o‘quvchiga nisbatan mo‘ljallanishdan voz kechish; — har bir shaxsning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlan-

tirish, qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, yo‘nalishi, sifatleri, aqliy jarayonining xususiyatlarini aniqlash;

— har bir o‘quvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o‘quv topshiriqlarini tayyorlash;

— ta’lim-tarbiya jarayonlarida shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Ta’limni differensiallashtirish va individuallashtirish o‘qitish jarayonida individual va guruhli yondoshish prinsipini talab etadi.

O‘qitish prinsiplari negizida o‘qitish qonunlari va qonuniyatlari yotadi. O‘qitish qonunlari va qonuniyatlarini o‘qitish prinsipining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik faoliyat amaliyotiga qo‘llashga zamin tayyorlaydi.

Shuni qayd etish lozimki, o‘qitish qonunlari va qonuniyatlari uzluksiz ta’lim tizimining oldiga qo‘yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar, jamiyatning ijtimoiy hayotidagi ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar, ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq holda o‘zgarib, yangilanib turadi. O‘qitish prinsiplari avvalo muayyan davlatning ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatish prinsiplari, so‘ngra ta’lim tizimi oldidagi buyurtmalariga mos kelishi, shuningdek, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib yangi-lanib, o‘zgarib, rivojlanib, o‘zgacha ahamiyat kasb etadigan jarayondir.